XALQ DEPUTATLARI SHO‘RCHI TUMANI KENGASHINING QARORI

Sho‘rchi tumani, Mustaqillik ko‘chasi 72-uy. 191500, tel.: (+99876) 457-45-73

2022 - yil 14 - iyul VI-48-89-8-120-K/22 Sho‘rchi tuman hokimligi

Tumandagi ayrim ziyoratgohlarning nomlarini tasdiqlash to‘g‘risida

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida ”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida ”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari Qiziriq tumani Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 14-apreldagi 01-14-518-son yig‘ilish bayoni ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda nomlari tasdiqlanayotgan ayrim ziyoratgohlarning ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (M.Sattarov), tuman qurilish bo‘limi (N.Mamadiyev), Davlat kadastrlar palatasi Sho‘rchi tumani filiali (I.Pulatov) tuman hokimligi bilan birgalikda nomlari tasdiqlangan ziyoratgohlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni

amalga oshirsin.

4. Tuman qurilish bo‘limi (Q.Xo‘jamqulov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (B.Mengboev) hududlarda nomlari o‘zgartirilgan geografik obyektlarga yangi nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qaror tuman hokimligi axborot xizmati (N.Shoyeva), “Jarayon” gazetasi tahririyati (B.Elmurodova) ga rasman e’lon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (D.Nazarov), xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (B.Rajabov) zimmalariga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi **Xudoyberganov B.X**

Xalq deputatlari Sho‘rchi tuman Kengashining
2022 yil 14 iyuldagi
VI-48-89-8-120-K/22-son qaroriga
1-ilova

Surxondaryo viloyati Sho‘rchi tumandagi ayrim ziyoratgohlarning nomlari

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Ziyoratgoh	Tolli MFY	Nomsiz	“Tolliota” ziyoratgohi	**Tolliota -** ‘Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i Qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	Ziyoratgoh	Oqkamar MFY	Nomsiz	“Hojibobo, Cho'pon ota” ziyoratgohi	**Cho‘ponota -**“Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i Qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3.	Ziyoratgoh	Kakan MFY	Nomsiz	“Sovjironbobo” ziyoratgohi	**Sovjironbobo -**“Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i Qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

4.	Ziyoratgoh	Oftobmakon MFY	Nomsiz	"Qorashayxbobo” ziyoratgohi	Qorashayxbobo -“Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i Qoidalari asosida normallashtirildi.